

27. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 89-фонд, 1-рўйхат, 28-иш, 37-варақ.
 28. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 89-фонд, 5-рўйхат, 56-иш, 42-варақ.
 29. Денов туман давлат архиви, 6-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 9-варақ.

YULDUZI SO'NGAN QAXRAMON YOXUD QATAG'ON QURBONI

Nazarov Otabek Muzrobovich
 Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi,
otabeknazarov8080@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda 1983-1989 yillarda amalga oshirilgan «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» nomli o'ylab topilgan uydirmalarning qurboni bo'lgan, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, sotsialistik mehnat qahramoni Bobomurod Omonov faoliyati va unga qo'yilgan noto'g'ri ayblovlar tavsilotlari, oqibatlarini maqolalar va adabiyotlar yordamida o'zaro tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bobomurod Omonov, Kommunizm kolxozi, paxta kompaniyasi, qo'shib yozish, noto'g'ri ayblovlar, qamoq, sud, ozodlikdan mahrum etish, oqlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность Бобомуро́да Омо́нова, участника второй мировой войны, героя социалистического труда, ставшего жертвой «хлопковое дело» и «узбекское дело», проводившихся в Узбекистане в 1983-1989 гг. и обвинения против него, детали и последствия обвинений были проанализированы с помощью статей и литературы.

Ключевые слова: Бобомуро́д Омо́нов, колхоз «Коммунизм», хлопковая компания, ложное обвинение, тюрьма, суд, лишение свободы, оправдательный приговор.

Abstract: In this article, the activity of Bobomurod Amonov, a participant of the Second World War, a hero of socialist labor, who was a victim of the "cotton work" and "Uzbeks' work" that took place in Uzbekistan in 1983-1989, and his contribution to it. The details and consequences of false accusations are cross-analyzed using articles and literature.

Key words: Bobomurod Omonov, Communism collective farm, cotton company, impeachment, false accusation, prison, trial, deprivation of liberty, acquittal.

Surxondaryoning Sariosiyo tumanida suronli yillarda dunyoga kelgan, yoshligi og'ir damlarga to'g'ri kelib, ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan, ikki marta jarohatlangan, sotsialistik mehnat qahramoni va shu bilan birgalikda sobiq "Kommunizm" kolxozida ulkan natijalarga erishganiga qaramasdan, o'tgan asrning 80-yillaridagi qatag'on qurboniga aylangan Surxondaryoning Sariosiyo tumanida istiqomat qilgan Bobomurod Omonov haqida so'z yuritamiz.

Bobomurod Omonov 1917 yil 16 noyabr sanasi, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanining O'mir qishlog'ida oddiy cho'pon Omon Sultonov va Saidabibi oilasida dunyoga kelgan.

Otasi Omon Sultonov Boylarning qo'yini boqib, so'ngra kichik yerlarni ochib, dehqonchilik qilib, halol mehnat evaziga hayot kechirgan. Onasi Saidabibi-uy bekasi bo'lgan[1].

Bobomurod Omonov 1935 yilda yetti yillik maktabni tamomlab, Buxorodagi 6 oylik hisobchilik kursiga o'qishga kiradi. Hisobchilik kursini tugallab kelgach, Telpakchinor qishloq sovetida ham kotib, ham hisobchi bo'lib ishlaydi. 1937 yil 20 yoshida harbiy xizmatni o'tashga ketadi. Xizmat safari tugamasdan Ikkinchi jahon urushi boshlanib, fashizmga qarshi jangga kiradi[2]. Urushning brinchi kunidan jang maydoniga kirgan Bobomurod Omonovning o'zni hamisha jangovar safning oldida bo'lgan. U jang maydonlarida ko'rsatgan jasoratlari va xizmatlari uchun 4 ta jangovar orden va ko'plab medallar bilan taqdirlanganlar. Leningrad shahri himoyasida matonat va qahramonlik ko'rsatgani uchun "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlangan. Rayxstag devorlari

yonida serjant Bobomurod Omonovga “Qizil bayroq” ordeni topshirilgan. Leningrad qamali ikkinchi jahon urushida eng ayanchli sahifalardan biri hisoblanadi. Unda inson irodasi, sadoqati va bardoshi nimalarga qodirligi namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu sinovlardan o‘tgan Bobomurod Omonovning sabr-bardoshi, irodasi taqdirining ajralmas qismiga aylanadi.

1946 yilning yozida ona yurti-Bobotog‘ga qaytgan Bobomurod Omonovni rayon ijroya qo‘mitasi bo‘lim mudirligi lavozimiga tayinlashadi. Ammo og‘ir sharoitlardi voyaga yetgan, qiyinchilikda irodasi toblangan qahramonimiz kolxozga ishga jo‘natishlarini so‘rab ariza yozadi.

Bobomurod Omonov 1948 yildan 1949 yilgacha Samarqand shahridagi qishloq xo‘jalik rahbarlarini tayyorlaydigan maxsus kursda tahsil oladi. U salmoqli rahbarlik faoliyatini 1949 yildan Sariosiyo tumanidagi Chkalov nomli jamoa xo‘jaligida raislik faoliyati bilan boshlaydi. 1950 yilda kam quvvatli hamda qoloq xo‘jaliklarni ilg‘or kolxozlarga birlashtirish harakati boshlanadi. O‘sha yili 3 ta, oradan ikki yil o‘tib 5 ta, 1955 yilda yana 3 ta kolxoz u rahbarlik qilayotgan xo‘jalikka qo‘shiladi. Boshqa kolxozlar qatori sobiq Chkalov kolxozi 5 yil ichida salmoqli, salohiyatli xo‘jalik darajasiga ko‘tariladi[3].

1956 yili uning mehnatlari samarasi o‘laroq “Sotsialistik Mehnat Kahramoni” yuksak unvoni bilan taqdirlandi. 1955 yili Surxondaryo oblas partiya qo‘mitasi a‘zoliciga va oblast soveti deputatligiga saylandi. 1959 yilda esa 36 ta mayda kolxoz birlashtirilib, “Kommunizm” kolxozi tashkil etildi[4].

1980 yilda O‘zbekiston KP Markaziy komiteti va O‘zbekiston SSR Ministrlar sovetining qarori bilan “Kommunizm” kolxozi sovxozga aylantiriladi va jami 8 sovxoz asosida “Kommunizm” agrosanoat birlashmasi tashkil etiladi. Bobomurod Omonovni birlashma bosh direktori va “Kommunizm” sovxoz direktori lavozimiga tayinlashdi. U shu lavozimda 1985 yil 28 mayigacha faoliyat ko‘rsatdi[5]. Taqdirni qarangki shu kundan boshlab qahramonimizni yangi sinovlar kutib turgan edi. Uni sog‘ligi yomonlashganini hisobga olishmasdan hibsga olib tergovga jalb etishdi. U ham viloyatdagi boshqa rahbarlar singari “paxta ishi” domiga tortildi.

Bobomurod Omonov rahbarligida “Kommunizm” jamoa xo‘jaligi zimmasiga davlatga 70 tonna, yiliga o‘rtacha hisobda 13 ming tonnadan ko‘proq miqdorda paxta, 6550 tonna don, 7484 tonna sut, 2732 tonna go‘sht, 124 tonna jun, 183 tonna pilla, 2.3 mln dona tuxum va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish majburiyatlarini yuklangan[6]. Shu bilan birgalikda u rahbarlik qilayotgan xo‘jalik daromadlari hisobidan uchta bolalar bog‘chasi, ikkita maktab, kasalxona, oltita yozgi va qishki klub, savdo markazi, istirohat bog‘i, 450 xo‘jalik uchun yangi uy-joy, Bobotog‘ sovxoziga olib boradigan yo‘l, kolxozning yangi idorasi va boshqi ijtimoiy muassasalar qurdirgan. Yangi ekinlar uchun qo‘riq yerlarni o‘zlashtirgan. Uning 30 yildan ortiq rahbarligi yillarida qilingan ishlarni uzoq davom ettirish mumkin. Ammo, olib borilgan bunyodkorlik ishlari uchun doim ham maqtov eshitmagan. Masalan, kasalxona qurilishi yoki kolxozning yangi idoralari qurilishlari viloyat partiya qo‘mitasining ikkinchi kotibi Grigoriy Porfilovich[7] tomonidan o‘zboshimchalik bilan qilingani iddao qilinib, B.Omonovga hayfsan berilgan.

U rahbarligidagi xo‘jalikda yuqoridagidek ulkan natijalar haqida “Mehnat va turmush” jurnalida 1971 yil 4 aprel sonida “Sarkor” nomli maqola, Mengziyo Safarov o‘zining “Davrlar farzandi” nomli ocherkida, O‘g‘iloy Omonovning “O‘z davrining faxri va qurboni” nomli Qurbongul Egamberdiyeva “Chinorga aylangan umr” risolalarida bayon etilgan[8], “Kommunizm” agrosanoat birlashmasi haqida uchta telefilm yaratilgan[9]. Shuningdek, Bobomurod Omonovning achchiq qismati Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida ham tilga olinadi[10].

Yuqorida keltirilgan raqamlardagi xo‘jaliklarning ijobiy natijalari va Bobomurod Omonov faoliyatida olib borgan oqilona boshqaruv sovet hokimiyatining navbatdagi qatag‘oni qurboniga aylanishdan saqlab qola olmadi. Sovet tuzumi boshqaruvining mohiyat e‘tibori qatag‘onlik siyosatiga yo‘g‘rilgan edi[11] desak xato bo‘lmaydi. Aynan o‘tgan asrning 80-yillari qatag‘oni siyosati ko‘proq rahbar kadrlar va paxta tayyorlash sohasi vakillariga qaratilgan edi. Achinarlisi, paxta siyosatiga umuman aloqasi bo‘lmagan kishilar

ham bu siyosat qurboniga aylandi[12].

Bobomurod Omonovga qo'yilgan ayblovlar quyidagicha edi:

birinchi ayblov-turli idoralarga yozilgan anonim xatlarda uning suruv-suruv podasi borligi yozilgan. O'tkazilgan birinchi taftishdayoq bu ma'lumot o'z tasdig'ini topmadi. Boshqa hech bir o'rinda bu bo'hton axborot qaytib tilga олинмади.

ikkinchi ayblov -xo'jalik balansidan xususiylashtirilgan GAZ-24 "Volga" avtomashina korpusini shaxsiy extiyojlariga ishlatib yuborganligi; bu ham tekshir-tekshirlar boshlanmasidan ilgariyoq o'z ixtiyori bilan qanday olingan bo'lsa o'shanday holatda sovxozga qaytargan;

uchinchi ayblov -xo'jalikka qarashli "GAZ-69" avtomashinasi Sh. Eshboltayevga hadiya etilgani xususida. Avvalo, Sh.Eshboltayev xo'jalikda 1965 yildan buyon ishlagan, zavoddan 1959 yilda ishlab chiqarilgan, obdon xizmatini o'tab bo'lgan "GAZ-69" unga hadya etilmagan, balki yarim narhiga sotilgan. Ayblov e'lon qilingan paytda bu avtomashina allaqachon yaroqsiz holga kelgandi;

to'rtinchi ayblov -viloyat prokurori avval e'lon qilib, so'ng uning tasdig'ini topishga kirishgan "qo'shib yozish" va "ko'zbo'yamachilik" xususida. Necha o'nlab va yuzlab begunhdan-begunoh odamlarni azob-uqubatga qo'ygan, tinchini o'g'irlagan, jild-jild jinoyat ishiga aylangan va pirovardida qahramonimizning hayotdan bevaqt ko'z yumishi bilan yakuniga yetgan.

Xullas, to'rtinchi jinoiy epizod tavsiloti quyidagicha kelib chiqdi. 1982 yil kuzi ob-havosi og'ir keldi. Respublika paxtakorlari 6 million tonnalik xirmonni uddalashi xavf ostida qoldi. Bu qiyinchilikdan "Kommunizm" agrosanoat birlashmasi ishchi dehqonlari ham chetda qolishmadi. Yillik reja 85 foizga bajarildi, terim to'xtadi-qo'ydi. Chunki dalada yetishtirilgan hosilning cho'g'i shundan ortig'iga yetmadi. Biroq yil yakunida xo'jalik paxta rejasini 100.48 foiz ko'rsatkich bilan uddaladi. B.Omonov boshchiligidagi jami 10 nafar ayblanuvchilar ustidan ochilgan jinoyat ishi mana shu 85 va 100.48 raqamlari orasida vujudga kelgan 15.48 foiz hosildan kelib chiqdi[13].

beshinchi ayblov- ayblov hukmida eng og'ir jinoyat sifatida quyidagilar zikr etilgan: "Kommunizm" sovxozi boshqa xo'jalik dalalaridan terib olingan hosilni "paxta zavodlari va punktlaridan naqd pul evaziga pora berish yo'li bilan sotib olingan paxta sovxoz planiga qo'shib yozildi".

Bobomurod Omonov shunday eslaydi:- obkom seretari A.Karimov ko'rsatmasi bilan raykomda yig'ilish o'tkazilib viloyatdagi Lenin va SHERABOD rayonlari xo'jaliklarida terib ulgurilmagan hosilni terib olish uchun hasharchilar jo'natishga qaror qilindi. 5 noyabr kuni oqshom men sovxoz faollarini to'plab obkom sekretari va raykom yig'ilishining qarorini aytdim. Hasharchilarning cho'lga borish ishlarining ma'suliyatini muovinim A.Ikramovga yukladim. U ertasigayoq hasharchilar bilan cho'l xo'jaliklariga jo'nab ketdi. Shundan so'ng yuragim xuruji tutib SHARG'undagi kasalxonada yotib qoldim. 15 noyabr kuni kasalxona bosh vrachi Nazarov telefonga -A.Karimov chaqirayotganligini aytdi. Bordim. U kishi hol-ahvol so'ragach, kasalxonadan bir kunga chiqib cho'ldagi xo'jaliklarga borishimga va yig'ilgan hosilni sovxoz xisobiga o'tkazish masalasini hal qilishimga ko'rsatma berdi bosh vrach 4 soatga ruxsat berdi. Men o'rinbosarim A.Ikramovning ko'rsatmasidan xabardor ekan-o'zaro kelishilgach, o'rnimga A.Ikramovni qoldirdim. SHERABOD rayonida esa M.Mallayevni qoldirib, SHARG'unga -kasalxonaga qaytdim. Usha kuni yurak xuruji qaytalandi. Ertasiga Toshkentga-1-statsionar kasalxonasiga olib kelishdi. 21 noyabr kuni meni ko'rgani kelgan SARIASIYO rayon ijroiya komitetining raisi NOMOZOV bilan A.Ikramov terimning borishi haqida haqida xo'jalikka, ya'ni "Kommunizm" sovxozi uchun xashar yo'li bilan paxta terib berishni topshirganini aytdi. Men bunga rozilik bermadim va ular terib beradigan paxta bizga zarur emas dedim. "Obkom sekretarining topshirig'i-ya!" dedi-NOMOZOV, "bo'lmasa, Karimov bilganini qilsin" dedim. Toshkentda 22 dekabrgacha davolandim. Shundan so'nggina uyga qaytdim[14].

Mana, bo'lgan voqea. Hosili terilmay yerda qolib ketayotgan xo'jaliklarga safarbarlikni kim tashkil qildi? Kim bu tashabbusning tepasida turdi? Hatto, cho'l

xo'jaliklari paxtasini terib "Kommunizm" hisobiga olinishi haqida kim ko'rsatma bermoqda?..

1982 yil 15 noyabrida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi I.Usmonxo'jayev, obkomning birinchi sekretari A.Karimov Sariosiyo raykomi binosida hamma kolxoz, sovxoz rahbarlari, maorif, meditsina xodimlari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda yuqori partiya, sovet tashkilotlarining topshirig'iga binoan sovxoz ishchilarini, maktab o'quvchilarini yillik paxta planini bajargan, lekin dalalarda hosil mo'l bo'lgan Lenin yo'li, SHerabod rayonlaridagi xo'jaliklarga jo'natishga kelishildi[15]. Lenin yo'li, SHerabod tumanlari 4-sort paxtani ular qabul qilmagach, terilgan paxtalar Kommunizm sovxozini hisobiga o'tkazilgan[16]. Paxtaning puli Kommunizm sovxozining bankdagi hisobiga o'tgani uchun qo'shib yozishga yo'l qo'yishlikda ayblashadi.

Lekin katta tajribaga ega bo'lgan xo'jalikning bosh hisobchisi Hazratqul Hasanov qishloq xo'jalik ministrligiga berilgan hisobotda "Kommunizm" dalalaridan terilgan hosilni alohida, SHerabod rayon xo'jaliklaridan terilgan hosilni alohida, Lenin yo'li rayoni dalalaridan terilgan paxtani alohida hisobot yozib hujjatga tikkan. Tergovchilar, revizorlar uchala ko'rsatkich umumlashtirilgan hisobotni ko'rishganu, o'zlaricha jinoyatni fosh qildik deb o'ylashgan.[17]

O'n nafar sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovlarning har biri yuzlab emas, minglab raqamlar orqali ifoda etilgandi. Tergov va sud majlisi jarayonida Hazratqul Hasanov hisob-kitob borasida xo'jalikni tekshiruvchilariga qaraganda qanchalar tajribali, malakali mutaxassis ekanligini namoyish etdi. U kishi qamoqda saqlanayotgan sharoitida ham revizor va tergovchilar tomonidan noto'g'ri hisoblanib jinoyat ishiga tirkalgan qanchadan-qancha ko'rsatkichlarga tuzatish kiritdi. Birgina misol, reviziya aktida revizor Haydar Movlanov "Kommunizm" sovxozida 1983 yilda jami 796.5 tonna paxta qo'shib yozilgan deb zikr etgani holda, ayblovlari xatida "hushyor" tergovchilar tomonidan bu raqam 1775.4 tonnaga aylanib kolgani, bu o'zgarishni hatto sud raisi ham "payqamagani"ga e'tiborni qaratdi[18].

"Sud, reviziya materiallariga tanqidiy

qarab sud majlisida revizor Mavlonov Haydarni so'roq qilganda, u haqiqatan ham Lenin yo'li va SHerabod rayonlari bo'yicha xarajatni hisoblab, daromadni qo'shmaganligini, ...980500 so'mni noto'g'ri zararga hisoblaganini, 1982 yil yakuni bo'yicha berilgan 58492 so'mlik raschyotni noto'g'ri zararga hisoblanganini, ...427260 so'mni oshiqcha eyerilgan mukofot deb noto'g'ri ko'rsatganligini, ...qo'shimcha ish haqlarini ham aktda mukofot deb noto'g'ri ko'rsatib xato qilganini, ...141438 so'mni noto'g'ri zarar deb hisoblaganini, ...87145 so'm to'g'ri to'langan bo'lsa-da, aktda noto'g'ri zararga hisoblanganligini, ...80734 so'm noto'g'ri mukofot berilgan deb 20394 so'mga xato qilganligini aytib ko'rsatma berdi[19].

Asoslanmagan ayblardan biri reviziya taftishlari "Kommunizm" agrosanoat birlashmasida umumiy hisobda 6 million 987269 so'm davlat va jamoat pul mablag'i talon-taroj qilinganligini "aniqlashgandi". Sud ajrimida esa eksport ishtirokida va sud muhokamasida tekshirilganda 6 million 987269 so'm qaysi so'mmalardan tashkil topganligini aniqlash imkoni bo'lmadi" degan so'zlar bilan rad etildi[20].

Xullas, tergov va sud jarayoni Bobomurod Omonovga qarshi ko'rsatma olish, ayblanuvchilarni har qanday vositalar bilan aybiga iqrar qilish yo'lidan bordi. Tergov jarayoni muddati o'tib ketganligiga qaramasdan asossiz gumondor sifatida qamoqda ushlab turildi. Chunki Markazning topshirig'ini bajarish, natija ko'rsatish lozim edi. Bobomurod Omonovning xizmatlari inobatga olinmadi. Bu haqida u KPSS MK Bosh sekretari M.Gorbachevga, O'zbekiston Oliy sudi kollegiyasining a'zosi A.Rahmonovga yo'llagan shikoyat-iltimosnomalari e'tiborga olinmadi.

O'n oyga cho'zilgan sud nihoyasiga yetdi. Sudlov jarayonlarida 415 nafar guvohning ko'rgazmasi tinglandi, 10 nafar ayblanuvchi aybsiz deb topildi... Xalq talabiga ko'ra sud B.Omonovga so'zlash huquqini berdi:

-Odamlar, sizga ming rahmat. Mana, oldingizda yuzim yorug', sizlar bilan yuzma-yuz bo'lish uchun turmaning barcha azoblariga bardosh berdim. Muzdek sovuq xonalarda muzlab o'tirdim, havosi so'rib olingan kameralarda suv oqish uchun tushirib qo'yilgan

kraynikka og‘zimni qo‘yib nafas oldim. Xalqim sizlarning oldingizda beaybligimni isbotlash uchun jon saqladim,-deb so‘zlaganda ko‘plar yig‘lab yubordi. Otam sud raisligini olib borayotgan Rahmonovga qarab, “mana, ko‘rdingiz, guvohi bo‘ldingiz, meni xalqim okladi, meni turmaga solib qiynab o‘tirmasdan osasizmi, otasizmi-hukmingizdaman Sizlarga jonim kerak shekilli, boshqa shikoyatim ham, gapim ham yo‘q” deb so‘zlarini tugatdi-deya otasining so‘zlarini keltiradi O‘.Omonova[21].

Sud qaroriga ko‘ra, shu kuni sud raisi Raxmonov xalq oldida B. Omonov va bosh hisobchi X.Xasanovlarni aybsiz ekanligini e‘lon qildi. Oqlov qog‘ozini markazga tasdiqlatib, to‘rt-besh kun ichida B.Omonovni orangizga qaytaramiz, deb va‘da qilishdi. Ammo 1987 yil 23 oktabr kuni ozodlikka chiqarilishi lozim bo‘lgan B.Omonovning tergov izalyatorida vafoti haqida yaqinlariga xabar berilgan.

Xulosa shuki, qahramonimiz Bobomurod Omonov kabi minglab O‘zbekiston xalqi vakillariga nisbatan qilingan bu qatag‘onlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohasini sezilarli zaiflashtirdi hamda kadrlar salohiyatiga jiddiy zarba berdi.

Sovet tuzumi sun‘iy ravishda kommunistik mafkuraga bo‘ysundirilgan barcha xalqlar boshiga cheksiz kulfatlar keltirdi. Markaz nima qilib bo‘lsa-da, O‘zbekiston misolida uning rahbariyatini, xalqini uyushgan jinoyatchilikda ayblab, obro‘sizlantirish yo‘lini

tutdi. Buning natijasida “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi uydirmalar o‘ylab topilgan bo‘lib, uning zamirida O‘zbekiston misolida nima qilib bo‘lsada qo‘shib yozish, xizmat lavozimini suiste‘mol qilish, uyushgan jinoyatchilikni vujudga kelganligini, ularni bartaraf etish bahonasida sovet ittifoqini saqlab qolish yotar edi.

Markazning tazyiqiga uchragan, “paxta ishi” kabi siyosiy o‘yinlar qurboni bo‘lgan, nafsoniyati toptalgan, asrlar davomida to‘plagan obro‘si to‘kilgan, jinoiy javobgarlikka tortilgan minglab kishilar orasida o‘ttiz to‘qqiz yil davomida yurt obodonchiligi, xalq farovonligi yo‘lida halol xizmat qilib kelgani uchun xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan, ishonchini oqlagan Sariosiyo tumani sobiq “Kommunizm” sovxozi direktori Bobomurod Omonov tergov guruhi qo‘lida fojiali o‘lim topdi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining “paxta ishi” bo‘yicha tuzilgan komissiyasi tomonidan marhum Bobomurod Omonov haqidagi ish materiallari bilan tanishib chiqib, uning harakatlarida jinoyat tarkibi bo‘lmaganligi xulosa qilindi.

Istiqlol sharofati bilan, o‘tgan asrning 80-yillarida “paxta ishi” va “o‘zbek ishi” uydirmalari qurbonlarini aniqlash, ularning faoliyatiga xolis baho berish imkoni tug‘ildi. Zero, xalqimiz o‘tmishimizdagi bu davr voqealari asl mohiyatini bilishga haqli.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Omonova O‘. O‘z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015. –B.6.
2. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: “Tafakkur” nashriyoti 2014. –B.6.
3. Omonova O‘. O‘z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015. –B.6.
4. Olloyorov T. «Paxta ishi»: uydirma va haqiqat. Termiz. “Info print”. 2022. –B.217.
5. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: “Tafakkur” nashriyoti 2014. yil –B.6.
6. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: “Tafakkur” nashriyoti 2014. yil –B.8.
7. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: “Tafakkur” nashriyoti 2014. –B.13.
8. “Mehnat va turmush” jurnali 1971 yil 4 aprel soni, Omonova O‘. O‘z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015., Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: “Tafakkur” nashriyoti 2014.
9. <https://www.youtube.com/watch?v=68YiR3O7F4Y>
10. Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” T. “Sharq”, 1994 –B.168.
11. Tojiboyev A. Niqoblangan razolat yoxud gldyancha “adolat”/ T.: “Akademnashr”, 2022. –B.9.
12. Xasanov B. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi. Yo‘lko‘rsatkich.-T.: “Akademnashr”, 2022. –B.95.
13. Omonova O‘. O‘z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015. –B.26.

14. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: "Tafakkur" nashriyoti 2014. yil –B.13.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 196-ish, 65-varaq.
16. Omonova O'. O'z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015. –B.28.
17. "Yosh kuch" jurnali. 1989. 10-son. –B.13.
18. Olloyorov T. «Paxta ishi»: uydirma va haqiqat. Termiz. "Info print". 2022. –B.217.
19. Omonova O'. O'z davrining faxri va... qurboni. T: Istiqlol, 2015.–B.26.
20. "Yosh kuch" jurnali. 1989. 10-son. –B.15.
21. Egamberdiyeva Q. Chinorga aylangan umr. T.: "Tafakkur" nashriyoti 2014. –B.20.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARIDA SURXONDARYODA MADANIY OQARTUV MUASSASALARI FAOLIYATI

Choriyev Sanjar Hamzayevich,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi.
sanjarbek1991abs@umail.uz

Anotatsiya: Madaniy-oqartuv muassasalari hukmron partiyaning tashviqot va targ'ibot olib boruvchi qudratli quroli hisoblangan, viloyatdagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati, Respublikaning barcha kutubxonalarida Komunistik partiyaning g'oyaviy-siyosiy mafkurasini targ'ib etish vazifasi asosiy maqsad qilib qoyilgan. Lektor, Termiz shahar kutubxonasi va kutubxonalar faoliyati, O'zbek teatr to'garagi, havaskorlik va badiiy to'garaklar faoliyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Madaniy-oqartuv muassasalari, lektor, madaniyat uyi, Termiz shahar kutubxonasi, kutubxonalar faoliyati, O'zbek teatr to'garagi, havaskorlik va badiiy to'garaklar faoliyati.

Аннотация: Культурно-просветительские учреждения считаются мощным оружием пропаганды и пропаганды правящей партии, основной целью деятельности культурно-просветительских учреждений региона, во всех библиотеках республики, является пропаганда идейно-политической идеологии. Коммунистической партии. Описана деятельность преподавателя, Термезской городской библиотеки и библиотек, деятельность Узбекского театрального клуба, кружков самодеятельности и творчества.

Ключевые слова: Культурно-просветительные учреждения, преподаватель, дом культуры, Термезская городская библиотека, деятельность библиотек, узбекский театральный клуб,

деятельность кружков самодеятельности.

Annotation: Cultural and educational institutions are considered a powerful tool of propaganda and propaganda of the ruling party, the main goal of the activities of cultural and educational institutions in the region, in all libraries of the Republic, is to promote the ideological and political ideology of the Communist Party. The activity of the lecturer, the Termiz city library and libraries, the activities of the Uzbek theater club, amateur and art clubs were described.

Key words: Cultural and educational institutions, lecturer, house of culture, Termiz city library, activities of libraries, Uzbek theater club, activities of amateur and art clubs.

Sovet hukumati tomonidan qabul qilingan qator dasturlarida aholini "ma'rifatli qilish" vazifalarini amalga oshirishda maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimidan tashqari, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy ta'lim muassasalar tarmog'i; kutubxona, klub, kinoteatrlar oldiga bir qator mafkuraviy harakterdagi mas'uliyatli talablar qo'yilib, madaniy-oqartuv ishlari kommunistik partiya tashkilotining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirildi. Madaniy-oqartuv muassasalari hukmron partiyaning tashviqot va targ'ibot olib boruvchi qudratli quroli sifatida keng xalq ommasi ongiga kommunistik mafkurani singdirishga xizmat qildi.

Mafkuraviy-g'oyaviy ahamiyati kuchli bo'lgan madaniy-ma'rifiy va oqartuv